

YANGI DUNYO TARTIBOTI NAZARYASIDA AQSH VA XITOIY

Shonazarova Nargiza Abduraxim qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya

Universiteti magistranti

+998905173242

nagonashonazarova.17@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur ishda yangi dunyo tartiboti tushunchasi hamda uning AQSH va Xitoy uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki davlatning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi roli va ularning siyosati global xavfsizlik va iqtisodiy tizimga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yoritiladi. Shuningdek, AQSH-Xitoy raqobatining xalqaro tizimda yuzaga keltirayotgan oqibatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Yangi dunyo tartiboti (NWO), AQSH-Xitoy, iqtisodiy aloqalar, geosiyosiy raqobat, chegara xavfsizligi, Tayvan, Markaziy Osiyo, jahon hamjamiyati.

Аннотация: В данной работе анализируется концепция нового мирового порядка и её значение для США и Китая. В исследовании рассматривается роль этих двух государств в современных международных отношениях, а также влияние их политики на глобальную безопасность и экономическую систему. Кроме того, анализируются последствия соперничества США и Китая в международной системе.

Ключевые слова: Новый мировой порядок (НМП), США-Китай, экономические связи, геополитическое соперничество, пограничная безопасность, Тайвань, Центральная Азия, мировое сообщество.

Annotation: This paper analyzes the concept of the new world order and its significance for the United States and China. The study examines the role of these two countries in contemporary international relations and the impact of their policies on global security and the economic system. Furthermore, the consequences of US-China rivalry in the international system are explored.

Keywords: New World Order (NWO), US-China, economic relations, geopolitical rivalry, border security, Taiwan, Central Asia, global community.

Kirish

Global siyosiy va iqtisodiy tizim XXI asrga kelib tub o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan bir paytda, geosiyosiy kuch markazlarining qayta taqsimlanishi, iqtisodiy integratsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi Yangi Dunyo Tartibotining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Ushbu jarayonda AQSH va Xitoy Xalq Respublikasi dunyoning eng muhim geosiyosiy aktorlari sifatida alohida

o'rin tutadi. Ularning o'zaro raqobati va hamkorligi jahon siyosatida strategik muvozanatni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yangi dunyo tartiboti sharoitida AQSH va Xitoyning siyosiy, iqtisodiy hamda harbiy strategiyalari nafaqat ikki tomonlama munosabatlarga, balki xalqaro tizimning kelajakdagi rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mazkur mavzuni o'rganish global xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va geosiyosiy jarayonlarni tushinishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va muhokama

Yangi dunyo tartiboti deganda, jahonda biror bir davlatni boshqaruv tizimi butunlay o'zgarishi hamda yangicha global tizim paydo bo'lishi nazarda tutiladi. Ushbu nazariyani yoqlovchilarning fikricha, ular Yevropa davlatlarining odatdagi hokimiyati susayib, Xitoy va Hindiston kabi yangi rivojlanayotgan davlatlarning ta'siri ortib borayotganligini ta'kidlashmoqda. Yangi dunyo tartiboti nazariyasi barcha mamlakatlar uchun fuqarolarining osoyishtaligi va farovonligini ta'minlash maqsadida davlatlar umummaqsad ostida birlashib yakdillikda harakat olib borishini tashkillashtiradigan siyosiy tizimni nazarda tutadi. Shunga qaramay, baribir ushbu g'oyani inkor etuvchilar ham yo'q emas, ba'zilar bu nazariyani elita qatlamining kuchli siyosiy va iqtisodiy o'yini deb hisoblasa, yana ayrimlar bu nazariyani fitna deb atashmoqda. Hozirgi vaqtda, Xitoy va AQSH jahon siyosiy maydonidagi eng asosiy rollarda bo'lib, ularning munosabatlari ko'pincha keskin va murakkab bo'lib kelgani ma'lum.

Xitoy iqtisodiy va harbiy qudratini jadal su'ratda rivojlantirib bormoqda va bu o'z navbatida AQSHning hukmronligiga qarshi kurashayotganligini anglatadi. Ayrim tahlilchilar Xitoy kelayotgan yaqin o'n yilliklarda AQSHni ortda qoldirib jahonda yetakchi global kuchga aylanish ehtimoli katta deb hisoblashmoqda. AQSH va Xitoy o'rtasidagi bu munosabatlar dunyo tartibi kelajagi uchun muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlilchilarning ayrimlari yangi global tizim yaratish uchun ikki davlat birga harakat qilishlarini ijobiy deb qabul qilishsa, boshqalari ikki davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklar va raqobat beqarorlikka olib kelishidan xavfsirashmoqda. Nazariya tarafdorlarining fikricha ko'pchilik global liderlar "Yangi dunyo tartibi" ni amalga oshirishda bevosita ishtirok etishadi, ushbu tizimga global voqealarni (masalan COVID-19 pandemiyasi va ommaviy urushlar) tashkillashtirishda faol ishtirok etib, bu global voqealar bilan bog'liq mavzularni jamiyatga yetkazilishini nazorat qilishadi. Shuningdek, ushbu nazariya tarafdorlari rivojlanib borayotgan global dunyoda AQSH o'z hukmronligining oxirgi bosqichiga kelganligini ta'kidlashmoqda. Besh yuz yillik "G'arb hukmronligi" tugayapti, Si Tszinpin hozirda global darajada mustaqil savdo va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning eng kuchli himoyachisi bo'lib, u olib borayotgan "Xitoy modeli" Xitoyni jahondagi eng yuqori mavqega chiqishini ta'minlaydi. 1992-yilda nashr qilingan "Tarixning oxiri" asarida Frensis Fukuyama

mafkuraga asoslangan ikki qutbli dunyo tartibi tugashini - liberal demokratiya va erkin bozor iqtisodiyotning dunyoda rejalashtirilgan iqtisodiyotlar ustidan muqarrarligini e'tirof etgan. Shunga qaramay, bugungi kunda Fukuyamaning g'oyasi ko'p jihatdan shubha ostiga olinmoqda. Chunki Xitoyning "Xitoy modeli" deb ataluvchi, davlat tomonidan boshqariladigan bozor iqtisodiyoti va avtoritar siyosiy tizimi nafaqat ichki barqarorlikni saqlab qolmoqda, balki ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham jozibador namuna sifatida qaralmoqda. Bu esa liberal demokratiyaning yagona universal model sifatidagi ustunligini so'roq ostiga qo'ymoqda. Natijada, global siyosiy maydonda ideologik diversifikatsiya yuzaga kelmoqda, ya'ni demokratik qadriyatlar bilan bir qatorda avtoritar va aralash modellarning ham raqobatga kirishi kuzatilmoqda.

AQSH Milliy razvedka kengashining so'nggi Global Trends hisobotida dunyo tartibining keskin o'zgarishi qayd etiladi. Hisobotda ta'kidlanishicha, global siyosiy tizim endilikda faqat ikki yoki uchta yirik davlatning nazorati ostida emas, balki ko'plab davlatlar, mintaqaviy bloklar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy kompaniyalar o'rtasida bo'linmoqda. Bu jarayon ko'p qutbli tizimning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur xulosaga ko'ra, so'nggi 70 yil davomida hukmron bo'lgan AQSH markazli liberal xalqaro tartib hozirgi sharoitda barqarorligini yo'qotmoqda. AQSHning o'zi ham yangi sharoitda global liderlikni saqlab qolish uchun harakat qilmoqda, biroq hisobotda aytilishicha, bu urinishlar tobora murakkablashib bormoqda. Chunki boshqa yirik davlatlar, xususan, Xitoy va Hindiston, iqtisodiy va harbiy salohiyatini oshirib, o'z hududiy ta'sirini kengaytirishga intilmoqda. Shu bilan birga, Rossiya, Turkiya, Braziliya kabi mintaqaviy kuchlarning ham global muammolarga ta'siri ortmoqda. Hisobot, shuningdek, Sovuq urush davridagi ikki qutbli paradigma hamda 1648-yildan buyon amal qilib kelayotgan Westfaliya tizimi zamonaviy geosiyosiy muammolarni hal qilishda endi yetarli emasligini e'tirof etadi. Bu tizimlar davlat suvereniteti va kuch muvozanatiga asoslangan edi, ammo hozirgi davrda kiberxavfsizlik, pandemiyalar, iqlim o'zgarishi, migratsiya kabi transmilliy tahdidlar xalqaro hamkorlikni talab etmoqda. Shu sababli, global boshqaruvning yangi modellarini ishlab chiqish zaruriyati keskin oshdi. Bu modellar, ehtimol, xalqaro tashkilotlarning vakolatini kengaytirish, global normativ bazani kuchaytirish va ko'proq ko'p tomonlama diplomatiyaga tayanishni nazarda tutadi.

Xulosa

Yangi dunyo tartibotining kelajagi AQSH va Xitoy o'rtasidagi raqobat va hamkorlikning qanday kechishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Ularning siyosiy strategiyalari, iqtisodiy siyosati va texnologik ustunlik uchun kurashi global xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik hamda xalqaro huquqiy normalar tizimining qayta shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdur, chunki bu jarayonlar

nafaqat davlatlararo munosabatlarga, balki butun insoniyatning kelajagiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fukuyama, F. (1992). The End of History and the Last Man. New York: Free Press.
2. National Intelligence Council. (2021). Global Trends 2040: A More Contested World. Washington, D.C.: U.S. Government Publishing Office.
3. Nye, J. S. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs.
4. Ikenberry, G. J. (2018). The End of Liberal International Order?. International Affairs, 94(1), 7–23.
5. Allison, G. (2017). Destined for War: Can America and China Escape Thucydides's Trap?. Boston: Houghton Mifflin Harcourt.
6. Xi Jinping. (2018). The Governance of China II. Beijing: Foreign Languages Press.
7. International Monetary Fund (IMF). (2024). World Economic Outlook: Navigating Global Divergence. Washington, D.C.: IMF.
8. World Bank. (2023). Global Economic Prospects. Washington, D.C.: World Bank Group.
9. SIPRI. (2024). Military Expenditure Database. Stockholm International Peace Research Institute.
10. Zakaria, F. (2020). Ten Lessons for a Post-Pandemic World. New York: W. W. Norton & Company.